



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SURXONDARYO VILOYATI HOKIMINING
Q A R O R I

Termiz shahri, At-Termiziy ko‘chasi 1-uy. 190100, tel.: (+99876) 224-00-15, surxon@exat.uz, gov@sdv.uz

2024 - yil 19 - yanvar

41-8-0-Q/24

Surxondaryo viloyati hokimligi

**Denov tumani “Oxtom” mahallasi hududidan suv inshooti qurilishi uchun yer maydoni
ajratish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 5-moddasiga va Vazirlar Mahkamasining “Yer uchastkalarini davlat va jamoat ehtiyojlari uchun doimiy foydalanishga ajratishning ma‘muriy reglamentini tasdiqlash to‘g‘risida” 2021-yil 27-avgustdagi 543-son qaroriga asosan, Denov tumani hokimligining 2023-yil 13-dekabrda 01-36/434-sonli xatini hamda “YERELEKTRON” AATga A1722210010/2 ID raqami bilan kiritilgan yer uchastkasiga tegishli tashkilotlar tomonidan berilgan xulosalarni inobatga olib,

Q A R O R Q I L A M A N:

1. Denov tumani “Oxtom” mahallasi hududidan tuman hokimligi zaxira yer fondidagi 0,05 gektar qishloq xo‘jaligida foydalanilmaydigan yer maydoni suv inshooti qurilishi uchun O‘zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi Surxondaryo viloyati hududiy boshqarmasiga doimiy foydalanish huquqi bilan ajratilsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi Surxondaryo viloyati hududiy boshqarmasi ajratilgan yer maydonini suv inshooti qurilishi va foydalanish uchun “Surxondaryo suv ta‘minoti” mas‘uliyati cheklangan jamiyatiga ijaraga berilishini ta‘minlasin.

3. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi Surxondaryo viloyati boshqarmasi (M.Abdiraxmanov)ga ajratib berilgan yer maydonidan samarali va maqsadli foydalanilishini doimiy nazorat qilib borish yuklatilsin.

4. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining Davlat kadastrlari palatasi Surxondaryo viloyati boshqarmasi (S.Shaymardanov) yer chegaralarini joyida (naturada) belgilashni amalga oshirsin va yer hisobotiga tegishli o‘zgartirish kiritish hamda yer uchastkasiga bo‘lgan huquqni davlat ro‘yxatidan o‘tkazilishini ta‘minlasin.

5. Viloyat Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bosh boshqarmasi (A.Abduraximov)

qonunchilikda belgilangan tartibda qurilish ishlarining loyiha-smeta hujjatlariga muvofiqligini monitoring qilib borsin.

6. Mazkur qaror bir kun muddatda viloyat hokimligining rasmiy veb-sayti (surxondaryo.uz)da e'lon qilinsin.

7. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish viloyat hokimining o'rinbosari A.Amirov zimmasiga yuklansin.

Surxondaryo viloyat hokimi



U.B.Qosimov